ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

# Journal of national CULTURE

Kelib tushdi: 22.07.2026 · Qabul qilindi: 25.08.2026 · Nashr etildi: 30.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/njs2zh33

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

# O‘zbek mumtoz musiqa madaniyatida ijrochilik maktablarining o‘rni: qiyosiy-madaniyatshunoslik tahlil

(The Role of Performing Schools in Uzbek Classical Musical Culture: A Comparative Culturological Analysis)

Jabborov Alisher

Independent research
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture
117036, Mirzo Ulugbek, Yalangoch Street, 127A
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: egamberdiyev@gmail.com

**Annotatsiya**

Maqolada o‘zbek mumtoz musiqa madaniyatida tarixan shakllangan mintaqaviy ijrochilik maktablari Buxoro-Samarqand, Xorazm, Farg‘ona-Toshkent hamda Qashqadaryo-Surxondaryo maktablari qiyosiy-madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Muallif “ijrochilik maktabi” tushunchasining ilmiy mezonlarini repertuar tarkibi, ijro texnikasi, jo‘rlik cholg‘ulari tarkibi, ustoz-shogird zanjiri va mahalliy sheva xususiyatlarini aniqlab, ular asosida to‘rt maktabning qiyosiy tavsifini beradi. Maktablar o‘rtasidagi genetik-tarixiy bog‘liqlik “variant-invariant” munosabati sifatida asoslanadi. Tadqiqot natijasida ijrochilik maktabi nafaqat badiiy-uslubiy, balki chuqur ijtimoiy-institutsional hodisa ekanligi, u o‘ziga xos kasbiy hamjamiyat va mintaqaviy identiklik tashuvchisi vazifasini bajarishi ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** ijrochilik maktabi, mintaqaviy uslub, Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqomlari, katta ashula, tanbur, avj, ustoz-shogird tizimi, variant-invariant, madaniy identiklik.

**Abstract**

The article analyses, from the standpoint of comparative culturology, the regional performing schools historically formed within Uzbek classical musical culture: the Bukhara-Samarkand, Khorezm, Fergana-Tashkent and Kashkadarya-Surkhandarya schools. The author identifies the scholarly criteria of the concept of a performing school repertoire composition, performance technique, the set of accompanying instruments, the master-apprentice chain and features of the local dialect and on this basis provides a comparative description of the four schools. The genetic and historical connection between the schools is substantiated as a variant-invariant relationship. The study demonstrates that a performing school is not only

an artistic and stylistic phenomenon but also a profoundly social and institutional one, functioning as a professional community and a bearer of regional identity.

**Keywords:** performing school, regional style, Shashmaqom, Khorezm maqoms, Fergana-Tashkent maqoms, katta ashula, tanbur, avj, master-apprentice system, variant-invariant, cultural identity.

**Аннотация**

В статье с позиций сравнительной культурологии анализируются исторически сложившиеся в узбекской классической музыкальной культуре региональные исполнительские школы бухаро-самаркандская, хорезмская, ферганско-ташкентская и кашкадарьинско-сурхандарьинская. Автор определяет научные критерии понятия «исполнительская школа» состав репертуара, технику исполнения, состав аккомпанирующих инструментов, цепь «устоз-шогирд» и особенности местного говора и на их основе даёт сравнительную характеристику четырёх школ. Генетико-историческая связь между школами обосновывается как отношение «вариант инвариант». В результате исследования показано, что исполнительская школа является не только художественно-стилевым, но и глубоко социально-институциональным явлением, выполняющим функцию профессионального сообщества и носителя региональной идентичности.

**Ключевые слова:** исполнительская школа, региональный стиль, Шашмаком, хорезмские макомы, ферганско-ташкентские макомы, катта ашула, танбур, авдж, система «устоз-шогирд», вариант-инвариант, культурная идентичность.

O‘zbek mumtoz musiqa madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning hududiy-uslubiy xilma-xilligidir. Bu xilma-xillik ilmiy adabiyotda “ijrochilik maktabi” tushunchasi orqali ifodalanadi. Ijrochilik maktabi deganda muayyan hududda tarixan shakllangan, o‘ziga xos badiiy-uslubiy belgilarga, repertuar xususiyatlariga va ijro texnikasiga ega bo‘lgan hamda ustoz-shogird tizimi orqali avloddan avlodga uzatib kelinayotgan barqaror ijodiy an’ana tushuniladi. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan bunday maktab shunchaki uslubiy tafovutlar majmui emas, balki muayyan mintaqa aholisining madaniy xotirasini saqlovchi va uzatuvchi institutdir.

Ijrochilik maktabini ilmiy jihatdan aniqlash uchun uning tarkibiy belgilarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, har bir maktab o‘ziga xos

repertuar tarkibiga ega: muayyan maqom turkumlari, ashula yo‘llari yoki cholg‘u kuylari aynan shu hudud uchun xarakterlidir. Ikkinchidan, maktablar ijro texnikasi va uslubi jihatidan farqlanadi ovoz qo‘yish uslubi, jo‘rlik cholg‘ularining tarkibi, avjlarni ijro etish madaniyati va usul tizimiga munosabat har bir maktabda o‘ziga xos tarzda shakllangan. Uchinchidan, har bir maktab uzluksiz ustoz-shogird zanjiriga tayanadi. To‘rtinchidan, mahalliy sheva xususiyatlari talaffuz, urg‘u qo‘yilishi, tovushlarning cho‘ziq yoki qisqa aytilishi bevosita ashula yo‘lining ritmik-melodik tuzilishiga ta’sir ko‘rsatadi.

“Lokallik”, ya’ni mahalliy uslub tushunchasi o‘zbek musiqashunosligida aniq ilmiy mezonlar asosida belgilanadi. Bunday mezonlar qatoriga geografik muhit, qadimiy turmush tarzi, madaniy muhitning o‘ziga xosligi, muayyan musiqa janrlarining mavjudligi, cholg‘ularning ma’lum voha yoki hududda tarqalganligi hamda o‘ziga xos musiqiy til belgilari kiradi. Ijrochilik maktabining shakllanishida “professionallik” mezoni ham alohida ahamiyat kasb etadi: mumtoz musiqa asarlari ustoz-shogird mahorat maktabini bosib o‘tishni va ijrochidan muayyan cholg‘uga hamda ovoz diapazoniga oid qat’iy talablarga javob berishni taqozo etadi[1, 23-b].

Ijrochilik maktablarining barqaror saqlanishida oilaviy-sulolaviy uzatish an’anasi alohida o‘rin tutadi. O‘zbek mumtoz musiqa tarixida Shojalilovlar, Rajabiylar, Jalilovlar, Mullaqandovlar, Tolmasovlar, Rahimovlar, Sherqo‘ziyevlar kabi bir necha avlod davomida musiqa san’atiga sodiq qolgan oilaviy sulolalar mavjud bo‘lib, ular har bir mintaqaviy maktabning barqaror rivojlanishini ta’minlagan. Shu bilan birga, oilaning har qanday a’zosi avtomatik tarzda yetuk ijrochi bo‘la olmagan: bunday maqomga erishish uchun ijrochidan yuzlab she’riy matnni yoddan bilish, ohangning barcha nozik tomonlarini eslab qolish hamda o‘ziga xos ovoz salohiyatiga ega bo‘lish talab etilgan[2, 9-b].

Buxoro-Samarqand maktabi. Zarafshon vodiysi hududida shakllangan bu maktab o‘zbek mumtoz musiqasining eng qadimiy va eng murakkab tizimi

Shashmaqomning asosiy vatani hisoblanadi. Maktab tarixan Buxoro amirligi saroyi homiyligida rivojlangan bo‘lib, uning ijrochilik uslubi yuksak professionallik, murakkab nazariy-amaliy asos va qat’iy an’anaviylik bilan xarakterlanadi. I.Rajabovning xulosasiga ko‘ra, Shashmaqom majmuasi O‘n ikki maqom tizimining XVIII asr birinchi yarmiga qadar davom etgan tadrijiy rivoji o‘laroq o‘zbek-tojik xalqlarining mustaqil musiqa janri sifatida Buxoro saroy madaniyatida uzil-kesil shakllangan[3, 77-b].

Buxoro ijrochilik uslubining o‘ziga xos xususiyati an’anaga qat’iy bo‘ysunish, kuy qochirimlari, namud va avjlarni yuksak mahorat bilan ijro etishga alohida e’tibor berilishidir. Bu maktabda avjlar ijrochiligiga katta ahamiyat berilgan, natijada yuksak darajadagi “avjlar madaniyati” rivojlangan. Avj tuzilmalari maqomlarning eng salmoqli qismini tashkil etish bilan bir qatorda asarning chuqur mazmuni va g‘oyaviy asosini anglab olishda qariyb hal qiluvchi ahamiyatga ega; hofizlarning kasbiy malakasi ham asosan avjlarni qay yo‘sinda ijro etishlari bilan bog‘liq baholanadi. Maktabning yirik namoyandalaridan biri Domulla Halim Ibodov (1878–1949) nihoyatda keng ovoz diapazoniga ega bo‘lib, uzun va murakkab virtuoz iboralarni bir nafasda kuylay olgan, uzoq cho‘zilgan fermatalarni bardosh bilan tuta bilgan[4, 45-b].

Xorazm maktabi. Shimoliy O‘zbekiston hududida, o‘ziga xos geografik-tarixiy sharoitda shakllangan bu maktab XIX asrda mustaqil, yaxlit tizim “Xorazm maqomlari” turkumini yaratdi[5, 6-b]. Turkum Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va Panjgoh maqomlaridan iborat bo‘lib, musiqiy amaliyotda “Olti yarim maqom” iborasi bilan yuritiladi[7, 65-b]. Xorazm maktabining Buxoro maktabidan farqlovchi asosiy xususiyati nisbatan ixchamlashtirilgan, tezlashtirilgan doira usullari, namudlarning katta o‘zgarishlarga uchraganligi va ularning o‘rniga bastakorlar tomonidan yangi avjlarning kiritilishidir[8, 7-b]. Bu maktab o‘zining

mumtoz shoirlari Ogahiy, Munis, Komil Xorazmiy, Avaz O‘tar she’rlaridan keng foydalanadi.

Xorazm maqomlarining tuzilishi ham o‘ziga xos: har bir maqomning “Chertim yo‘li” (cholg‘u bo‘limi) tarkibiga Tani maqom, Tarje’, Gardun, Muhammas, Saqil qismlari, shuningdek Peshrav va Ufar qismlari kiradi; “Aytim yo‘li” (ashula bo‘limi) tarkibida esa Tani maqom, Talqin, Nasr, Ufar kabi qismlar mavjud. Xorazm maqomlarining mahoratli ijrochilari bir necha avloddan iborat: XIX asrda Komil Xorazmiy, keyinchalik Xudoybergan Muhrkan, Matyoqub Xarratov, Muhammad Rasul Mirzo, XX asr davomida esa Matpano Ota Xudoyberganov, Matyusuf Xarratov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov kabi ustozlar an’anani davom ettirganlar.

Farg‘ona-Toshkent maktabi. Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi hududida shakllangan bu maktab o‘zbek mumtoz musiqasining yana bir asosiy turkumi “Farg‘ona-Toshkent maqomlari”ni yaratdi. I.Rajabov ta’kidlaganidek, bu turkum Shashmaqom sho‘balari asosida yuzaga kelgan bo‘lib, uni “Shashmaqomning invarianti” deb atash mumkin. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari Shashmaqom va Xorazm maqomlaridan farqli o‘laroq yaxlit turkum hosil etmay, alohida cholg‘u va ashula yo‘llaridan iborat bo‘lib qolgan; ular nafaqat xon saroylarida, balki xalq tomosha va bayramlarida, to‘y bazmlari hamda uy yig‘inlarida ham ijro etilgani bois ularning musiqiy tili xalqchil va nisbatan ommaviy tus olgan.

Bu maktabning o‘ziga xos janrlaridan biri katta ashula (patnis ashula) bo‘lib, u kuyining deklamatsion xarakterdaligi, diapazonining kengligi (uch oktavaga yaqin), asosiy melodik tuzilmaning badiha tarzida rivojlantirilishi hamda ritm-o‘lchovining muttasil bo‘lmaganligi bilan xarakterlanadi. Katta ashula an’anasi tarixida uzluksizlik masalasi alohida e’tiborga loyiq: XX asrning ma’lum davrida bu sohada an’anani munosib davom ettiruvchi hofizlarning yetishmasligi tufayli o‘ziga xos uzilish holati yuzaga kelgan, keyinchalik esa taniqli ustoz-murabbiylarning sa’y-

harakatlari bilan katta ashula ijrochilari qayta tarbiyalangan. Maktabning yorqin namoyandalari Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Yunus Rajabiy, Abduqodir Ismoilov, Jo‘raxon Sultonov, Rasulqori Mamadaliyev, Fattohxon Mamadaliyev maqom yo‘llarini yangi asarlar bilan boyitganlar.

Qashqadaryo-Surxondaryo maktabi. O‘zbek mumtoz musiqashunosligida to‘rtinchi mustaqil lokal-uslubiy yo‘nalish sifatida tan olinadigan bu maktab janubiy O‘zbekiston hududlarining o‘ziga xos geografik-tarixiy sharoitida shakllangan. Uning boshqa uch maktabdan tubdan farq qiluvchi jihati shundaki, u ko‘proq epik-dostonchilik janriga, kamroq esa Shashmaqom tipidagi murakkab, ko‘p qismli maqom turkumlariga asoslangan. Bu farq mintaqaning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot xususiyatlari bilan bog‘liq: agar Buxoro, Xiva va Qo‘qon kabi markazlarda saroy homiyligi ostida murakkab professional tizimlar rivojlangan bo‘lsa, janubiy viloyatlarda ijodiy jarayon ko‘proq xalq muhitida, dostonchilik an’anasi zaminida kechgan.

Tanbur cholg‘usining ijrochilik maktablaridagi o‘rni alohida e’tiborga loyiq. Ota Jalol Nosirov, Levi Bobohonov, Shoxnazar Sohibov, Matyoqub Xarratov, Jo‘raxon Sultonov, Rasulqori Mamadaliyev kabi yetuk hofizlarning barchasi bir vaqtning o‘zida mohir tanburchi ham bo‘lganlar bu holat mumtoz xonandalik san’atida ovoz va cholg‘uning ajralmas birligini ko‘rsatadi. Tanbur oddiy jo‘r sozi vazifasini bajarmaydi, balki hofizga “hamnafas” bo‘lgan asosiy ijro vositasi sifatida xizmat qiladi; uning uzun dastasi va nozik parda tuzilishi maqom pardalarini aniq va tiniq ifodalash imkonini beradi[9, 6-b].

Ijrochilik maktablari muammosining o‘rganilganlik darajasini shartli ravishda uch yo‘nalishga ajratish mumkin. Birinchi yo‘nalishni maqom san’atining umumnazariy asoslariga bag‘ishlangan tadqiqotlar tashkil etadi. A.Fitratning risolasida maqom turkumlarining tarixiy shakllanishi va sho‘balar tizimi ilk bor milliy ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan; unda, shuningdek, “el kuylari” yoki

“termalar” nomi bilan yuritiladigan, Shashmaqom bayrog‘i ostiga kirmaydigan mustaqil qatlamning mavjudligi alohida ta’kidlangan. I.Rajabovning “Maqom asoslari” asarida maqomning nazariy tuzilishi, parda tizimi va sho‘balar munosabati asoslab berilgan hamda mintaqaviy turkumlar o‘rtasidagi genetik bog‘liqlik masalasi ilmiy muomalaga kiritilgan[10, 71-b].

Ikkinchi yo‘nalish mintaqaviy maktablarni maxsus tadqiq etuvchi ishlardan iborat. R.Abdullayevning “An’anaviy o‘zbek musiqasi asoslari” darsligida to‘rt ijrochilik maktabining qiyosiy tavsifi berilgan bo‘lib, mazkur maqola uchun asosiy nazariy manba vazifasini o‘taydi. F.To‘rayevning “Buxoro Shashmaqomi tarixidan” monografiyasi Buxoro maktabining tarixiy-shaxsiy qatlamini, G‘.Xudoyevning tadqiqoti esa uning nazariy-uslubiy asoslarini yoritadi. O.Ibrohimovning darslik va qo‘llanmalarida maqom tizimlarining tarixiy-nazariy tavsifi zamonaviy metodologiya asosida berilgan.

Uchinchi yo‘nalishga ijrochilik va hofizlik san’atining kasbiy-uslubiy masalalariga oid ishlar kiradi. S.Begmatovning “Hofizlik san’ati” qo‘llanmasida vohaviy, guruhiy va shaxsiy ijrochilik yo‘llari-uslublarining shakllanish qonuniyatlari tizimlashtirilgan; M.Mirabdullayevning “An’anaviy xonandalik” qo‘llanmasida esa xonandalik an’anasining tarixiy bosqichlari tavsiflangan. Ye.Romanovskayaning yozib olish faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlar XX asrning birinchi yarmidagi hududiy uslubiy tafovutlar haqida qimmatli faktik material beradi.

Mavjud ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy ijrochilik maktablari asosan musiqashunoslik va san’atshunoslik doirasida badiiy-uslubiy tafovutlar nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Ularni madaniyatshunoslik doirasida, ya’ni ijtimoiy institut, kasbiy hamjamiyat va mintaqaviy identiklik tashuvchisi sifatida talqin etishga qaratilgan tadqiqotlar esa kam uchraydi. Shuningdek, maktablar o‘rtasidagi

ilmiy tizimlashtirilganlik darajasidagi tengsizlik masalasi maxsus tahlil predmetiga aylantirilmagan.

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil quyidagi ilmiy natijalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, to‘rt ijrochilik maktabi o‘rtasidagi munosabat bir jinsli emas. Xorazm va Farg‘ona-Toshkent maqomlari Shashmaqom sho‘balaridan bevosita kelib chiqqan bo‘lib, ular Buxoro-Samarqand maktabi bilan musiqashunoslikda “variant-invariant” munosabati deb ataladigan bog‘liqlikda turadi: har ikkala maktab o‘zining mustaqil badiiy shaklini yaratgan holda, tub negizda Shashmaqom tizimiga tayanadi. Qashqadaryo-Surxondaryo maktabining boshqa maktablar bilan munosabati esa boshqacha tabiatga ega u ko‘proq mustaqil, o‘zining alohida tarixiy-janriy ildizlariga, avvalo dostonchilik-baxshichilik an’anasiga ega bo‘lgan yo‘nalish sifatida rivojlangan.

Ikkinchidan, maktablar o‘rtasidagi farqlar ijro texnikasi darajasida eng yaqqol namoyon bo‘ladi. Buxoro maktabi uchun avjlar madaniyati va an’anaga qat’iy bo‘ysunish, Xorazm maktabi uchun usullarning ixchamlashtirilishi va yangi avjlar kiritilishi, Farg‘ona-Toshkent maktabi uchun badiha erkinligi va katta ashula janrining rivojlanishi, Qashqadaryo-Surxondaryo maktabi uchun esa “ichki ovoz” texnikasi va epik ijro uslubi xarakterlidir. Ushbu tafovutlar tasodifiy emas, balki har bir mintaqaning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot xususiyatlari bilan shartlangan.

Uchinchidan, mahalliy sheva omili ijrochilik maktablarini farqlovchi mustaqil mezon sifatida ajratib ko‘rsatilishi lozim. Har bir mintaqaning talaffuz xususiyatlari, urg‘u qo‘yilishi va tovushlarning cho‘ziqlik darajasi ashula yo‘lining ritmik-melodik tuzilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu bog‘liqlik mumtoz musiqa merosining til madaniyati bilan uzviy aloqasini ko‘rsatadi va uni sof musiqiy hodisa sifatida emas, balki kompleks lingvo-musiqiy hodisa sifatida o‘rganish zarurligini asoslaydi.

To‘rtinchidan, madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ustoz-shogird zanjiri orqali shakllangan har bir mintaqaviy maktab o‘ziga xos ijtimoiy-kasbiy hamjamiyat, o‘ziga xos “birodarlik” tuzilmasini ifodalaydi. Bir ustozning turli davrlardagi shogirdlari o‘rtasidagi “bir maktab vakili” degan umumiy identifikatsiya nafaqat badiiy-uslubiy, balki chuqur ijtimoiy-psixologik ahamiyatga ega bo‘lib, u kasbiy solidarlik va o‘zaro yordam tarmog‘ini shakllantiradi.

Beshinchidan, tahlil maktablar o‘rtasidagi ilmiy tizimlashtirilganlik darajasida sezilarli tengsizlik mavjudligini ko‘rsatdi. Buxoro-Samarqand, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent maktablarining maqom turkumlari allaqachon notaga olinib, maxsus o‘quv dasturlariga kiritilgan va ko‘plab monografiyalarda tadqiq etilgan bo‘lsa, Qashqadaryo-Surxondaryo maktabining mumtoz xonandalik qatlami bu jihatdan sezilarli darajada ortda qolgan. Bunday tengsizlik, agar bartaraf etilmasa, uzoq muddatli istiqbolda mazkur maktabning ustuvorlik darajasi pasayishiga olib kelishi mumkin.

Oltinchidan, XX asr boshlarida tashkil etilgan maxsus ta’lim muassasalari Turkiston xalq konservatoriyasi, Buxorodagi “Sharq musiqa maktabi”, Samarqanddagi “Xalq musiqasi va xoreografiya instituti” an’anaviy ustoz-shogird tizimini institutsional shaklda davom ettirgan. Bu jarayonning ijobiy jihati merosni uzatish miqyosining kengayishi bo‘lsa, muammoli jihati unifikatsiya xavfi hisoblanadi: agar institutsional ta’lim tizimi barcha mintaqaviy uslublarni bir xil dasturga tortib qo‘ysa, bu uzoq muddatli istiqbolda maktablarning o‘ziga xosligini yo‘qotish xavfini keltirib chiqaradi.

Yettinchidan, xalqaro-qiyosiy kontekst o‘zbek maqomchiligining ikki muhim xususiyatini yorqinroq ko‘rsatadi: uning umumsharq musiqiy-nazariy an’anasining tarkibiy qismi ekanligini va shu umumiy negizda o‘zining mustaqil milliy-mintaqaviy shaklini yaratganligini. Arab maqamlari, ozarbayjon mug‘omlari, eron dastgohlari va uyg‘ur muqomlari qatorida o‘zbek-tojik maqomlari alohida, betakror

tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Mintaqada tarixan bir necha yirik madaniy-siyosiy markazning parallel mavjudligi to‘rt maktabning barqaror shakllanishi uchun obyektiv zamin yaratgan. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

O‘zbek mumtoz musiqa madaniyatini o‘rganishda “yagona, bir xil milliy musiqa” tushunchasidan ko‘ra “ichki xilma-xillikka ega, ammo umumiy tarixiy-genetik negizga asoslangan yaxlit tizim” tushunchasi ilmiy jihatdan ancha aniqroq va samaraliroqdir.

Ijrochilik maktabi badiiy-uslubiy hodisa bo‘lish bilan bir qatorda ijtimoiy institut hisoblanadi: u kasbiy hamjamiyat shakllantiradi, mintaqaviy identiklikni mustahkamlaydi va madaniy xotirani uzatish mexanizmi vazifasini bajaradi.

Maktablar o‘rtasidagi genetik bog‘liqlik “variant-invariant” munosabati sifatida talqin etilishi mumkin, biroq bu model Qashqadaryo-Surxondaryo maktabiga to‘liq tatbiq etilmaydi mazkur maktab nisbatan mustaqil, dostonchilik janriga tayangan yo‘nalish sifatida baholanishi lozim.

Mintaqaviy maktablarning ilmiy tizimlashtirilganlik darajasidagi tengsizlikni bartaraf etish janubiy viloyatlar mumtoz xonandalik merosini notaga olish, ilmiy tavsiflash va o‘quv dasturlariga kiritish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifasi hisoblanadi.

Institutsional ta’lim tizimida mintaqaviy uslubiy o‘ziga xoslikni saqlab qolish maxsus metodik yondashuvni umumiy dastur doirasida mahalliy repertuar va ijro uslublariga alohida o‘rin ajratishni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. PQ-3391-son, 2017-yil 17-noyabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent: O‘zR FA «Fan» nashriyoti, 1993. – 112 b.
3. Rajabov I. Maqom asoslari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1963. – 268 b.
4. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: San’at, 2006. – 400 b.
5. Rajabiy Yunus. Musiqa merosimizga bir nazar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. – 152 b.

6. Rajabiy Yunus. Shashmaqom: 6 jildlik / F.Karomatov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1966–1974.
7. Karomatov F.M. O‘zbek xalq musiqa merosi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. – 224 b.
8. Abdullayev R. An’anaviy o‘zbek musiqasi asoslari: konservatoriya talabalari uchun darslik. – Toshkent: «Musiqa» nashriyoti, 2022. – 360 b.
9. Ibrohimov O. Maqom asoslari: darslik. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – 180 b.
10. Ibrohimov O. Maqomlar tarixi va nazariyasi: darslik. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – 164 b.

**References**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [On Measures for the Further Development of Uzbek National Maqom Art]. Resolution No. PQ-3391, November 17, 2017. *Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi* [National Database of Legislation]. lex.uz. (in Uzbek)
2. Fitrat, A. *O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi* [Uzbek Classical Music and Its History]. Tashkent: O‘zR FA Fan, 1993. (in Uzbek)
3. Rajabov, I. *Maqom asoslari* [Fundamentals of Maqom]. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1963. (in Uzbek)
4. Rajabov, I. *Maqomlar* [Maqoms]. Tashkent: San’at, 2006. (in Uzbek)
5. Rajabiy, Yunus. *Musiqa merosimizga bir nazar* [A Look at Our Musical Heritage]. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. (in Uzbek)
6. Rajabiy, Yunus. *Shashmaqom*. 6 vols. Edited by F. Karomatov. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1966–1974. (in Uzbek)
7. Karomatov, F. M. *O‘zbek xalq musiqa merosi* [Uzbek Folk Musical Heritage]. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. (in Uzbek)
8. Abdullayev, R. *An’anaviy o‘zbek musiqasi asoslari: konservatoriya talabalari uchun darslik* [Fundamentals of Traditional Uzbek Music: A Textbook for Conservatory Students]. Tashkent: Musiqa, 2022. (in Uzbek)
9. Ibrohimov, O. *Maqom asoslari: darslik* [Fundamentals of Maqom: Textbook]. Tashkent: Donishmand ziyosi, 2023. (in Uzbek)
10. Ibrohimov, O. *Maqomlar tarixi va nazariyasi: darslik* [History and Theory of Maqoms: Textbook]. Tashkent: Donishmand ziyosi, 2023. (in Uzbek)